

BRUNO APITSNING "QASHQIRLAR CHANGALIDA" ROMANI TARJIMASIDA BADIY TASVIRIY VOSITALARNING AKS ETISHI

Mashhura Xabibullaevna NAZAROVA

O'qituvchi

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

ОТРАЖЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА В ПЕРЕВОДЕ РОМАНА БРУНО АПИТСА «ГОЛЫЙ СРЕДИ ВОЛКОВ»

Машхура Хабибуллаевна НАЗАРОВА

Преподаватель

Гулистанский государственный университет

Гулистан, Узбекистан

THE ARTISTIC IMAGE REFLECTION IN THE TRANSLATION OF BRUNO APITS'S NOVEL "NAKED AMONG WOLVES"

Mashkhura Xabibullaevna NAZAROVA

Teacher

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan nmashxura@mail.ru

UDC (УО'К, УДК): 8.82

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Nazarova M. Bruno Apitsning "Qashqirlar changalida" romani tarjimasida badiiy tasviriy vositalarning aks etishi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 5 (46). — B.137-150.

<https://doi.org/10.36078/1672899377>

Received: September 25, 2022

Accepted: October 17, 2022

Published: October 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Annotatsiya. Maqolada nemis yozuvchisi Bruno Apitsning «Qashqirlar changalida» romani haqida va ushbu asardagi badiiy tasvir vositalar, idiomatik birikmalar, ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarning o'zbek tilida qanday yoritib berilganligi xususida so'z boradi. Ma'lumki, tasviriy vositalar asarning badiiyligini ta'min etuvchi mezonlardan biri hisoblanib, asardagi voqealar jarayonini yoritib berishda va qahramonlar xarakterini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Badiiy adabiyotda ko'p uchraydigan o'xshatish — badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lib, obyektning obrazli, ta'sirchan va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yozuvchi Buxenvald konslagerida o'zi guvoh bo'lgan voqealarni va asar qahramonlarini, jumladan, lagerdagi fashistlarni tasvirlashda ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, shu paytdagi manzaralarni tasvirlashda o'xshatishlardan ko'p foydalangan. Shu bilan birga kitobxonning diqqatini obrazning ko'rinmas tomonlariga jalb qilib, asarning g'oyasini ochishga yo'naltirgan. Maqolada asarning nemis tilidagi o'xshatishlardan misollar keltirilib, ular o'zbek tili tarjimalarida o'ziga xos tarzda kitobxonlarga asliyatdagi jozibani yo'qotmagan holda taqdim etilganligi va ayrim so'zlar tarjimasini o'z ma'nosini saqlagan holda shunga yaqin ma'no beruvchi jumlar bilan qanday yoritilgani xususida so'z boradi. Tahlil jarayonida tarjimon mahorati va uning asar tarjimasini xuddi asliyatdagidek yoritishga harakat qilgani ayrim jumlar misolida ko'rib chiqildi. Badiiy adabiyotda o'z o'rniga ega bo'lgan har bir ijodkor asarlari va tarjima asarlarni tahlil etish, yozuvchi va tarjimonning mahoratini o'rganish va baholash, ularning adabiy til rivojiga o'z asarlari orqali qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi. Nemis tilidan

bevosita tarjima qilingan asarni tahlil qilarkanmiz, tom ma'noda tarjimon badiiy iste'dod va iqtidorini aniqlash imkonini beradi. Tarjimon asarni o'zbek tiliga o'girar ekan, tilimizdagi barcha badiiy-lug'aviy vositalardan voqealarning asl mohiyatidan kelib chiqqan holda, asliyatdagidek o'zbek kitobxonlariga taqdim etganligini ayrim misollar yordamida ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima; tasviriy vositalar; idiomatik birikma; mahbuslar tili; davr muhiti; tarjimada aks etishi.

Аннотация. В статье рассказывается о романе немецкого писателя Бруно Апица «Голый среди волков» и о том, как художественные образы, идиоматические сочетания, переносные слова и выражения в этом произведении переданы в переводе на узбекский язык. Известно, что изобразительные средства являються украшением произведения и играют важную роль в освещении хода событий в произведении и изображении характеров героев. Сравнения, часто встречающиеся в художественной литературе, — одно из средств художественности, характеризующееся особенностями образного, выразительного и лаконичного изображения предмета. Писатель часто использовал сравнение в описании событий, свидетелями которых он был в Бухенвальдском концлагере, и героев произведения, в том числе нацистов в лагере, для раскрытия их индивидуальных особенностей, для отражения душевных состояний, для описания сцен того времени. При этом внимание читателя обращено на невидимые стороны образа, направленные на раскрытие замысла произведения. В статье приводятся примеры сравнений из произведения на немецком языке, которые по-своему представлены читателям в переводах на узбекский язык, а также то, как перевод некоторых слов передается предложениями, которые придают им близкое значение, сохраняя при этом их смысл. На примере отдельных предложений в ходе анализа было рассмотрено мастерство переводчика и его попытки сделать таким перевод произведения, как если бы оно было оригиналом. Произведения и перевод каждого автора, имеющие место в художественной литературе, вытекают из необходимости анализа произведений, изучения и оценки мастерства писателя и переводчика, определения того, в какой степени они влияют на развитие литературного языка через свои произведения. Анализ произведения, переведенного непосредственно с немецкого языка, позволяет определить художественный талант переводчика. В ходе исследования была предпринята попытка выявить, насколько эффективно переводчик использовал все художественные и лексические возможности языка перевода.

Ключевые слова: художественный перевод; изобразительные средства; идиоматическое сочетание; язык заключенных; среда эпохи; отражение в переводе.

Abstract. The article discusses the novel "Naked Among Wolves" by German author Bruno Apitz and its translation into the Uzbek language, along with an explanation of the Uzbek language's literary devices, idiomatic expressions, metaphoric terms, and word combinations. As is known, visual aids are considered the decoration of the work to explain the sequence of the events in work and describing the personalities of the heroes. The simile is one of the forms of artistic representation, which is fluently used in fiction and is distinguished by the features of figurative, impressive and concise representation of the object. The writer used a lot of similes to describe the events that he witnessed in the Buchenwald concentration camp and the heroes of the work, including the Nazis in the camp, to

identify their unique individual characteristics, to reflect mental states, and to describe the scenes of that time. At the same time, he drew the reader's attention to the invisible sides of the image to reveal the idea of the work. The article provides examples of comparisons in the German language, how they are uniquely presented to readers in translations into Uzbek, and how the translation of some words is covered by sentences with a similar meaning while maintaining their meaning. The works and translations of each creator, which take their place in fiction, arise in connection with the need to analyze the works, to study and evaluate the skills of the writer and translator. The analysis of the work translated directly from the German language allows to determine the artistic talent of the translator. The study tried to reveal how effectively the translator used all the artistic and lexical sets of the target language.

Keywords: artistic translation; visual aids; idiomatic blending; prisoners' languages; historical context; translational reflection.

Kirish. Tarjima — soʻz sanʼatining bir koʻrinishi boʻlib, u hech qachon asarni aniq soʻzma-soʻz tarjima qilishga yoʻl qoʻymaydigan tarjima qonuniyatlarini oʻzida jamlagan fan, shuning uchun tarjimon yozuvchilik mahoratiga ham ega boʻlishi zarur. Badiiy tarjima ijodiy ish boʻlib, u tarjimon zimmasiga murakkab va masʼuliyatli vazifani yuklaydi. Chunki tarjimon biron bir asarni tarjima qilar ekan, uni asl nusxadagidek badiiy xususiyatlarini saqlagan holda kitobxonga yetkazib berishi lozim boʻladi. Ana shundagina u tarjima tilida soʻzlashuvchi kitobxonda xuddi asl nusxadek taassurot qoldiradi. Badiiy-tasviriy vositalar badiiy asarning magʻzi, shirasi, ichki va tashqi bezagi, mevasi hisoblanadi. U yoki bu asardagi badiiy-tasviriy vositalarning oʻzbek tilida berilishi masalasini ilmiy tadqiq qilish tarjima nazariyasidagi eng oʻzak masalalardan biri boʻlib, tadqiqotchining ilmiy-amaliy xulosalari tarjimonga maʼlum asarni butun badiiy jilosi, tarovati bilan qayta tiklashda yordam berishi tabiiy.

Tarjimon Y. Egamovanning fikricha, “tarjimon asarning unda tasvirlangan voqealarning ichiga kirib borishi, qahramonlar bilan birga yigʻilishi, ular bilan birga kulishi, birga oʻylab his etish, harakat qilishi, xullas, qahramonlar orasiga qoʻshilib ketishi zarur” (4, 3–11). Koʻplab Gʻarb adabiyoti namunalari oʻzbek tiliga asosan rus tili orqali tarjima qilib kelingan. Ikki til orqali oʻzbek kitobxoniga yetib kelgan bunday vositalar tarjima asarlarida badiiy jihatlar mazmunan koʻp boy beriladi, asar oʻz asl joziba va tarovatini yoʻqotadi. Shuning uchun, agar tarjimon asliyat tilini bilsa, uni bevosita tarjima qilgani maqsadga muvofiq. Hozirgi paytda asliyatdan oʻgiradigan tarjimonlar soni ancha koʻpaygan boʻlsa-da, ushbu sohada hali qilinadigan ishlar juda koʻp.

Asosiy qism. Hozirgi kunda kutubxonalar, kitob magazinlarida koʻpgina Amerika va Gʻarbiy Yevropa adabiyoti asarlarining oʻzbek tilidagi namunalarini koʻrishimiz mumkin. Ularning aksariyati bilvosita, yaʼni rus tili orqali tarjima qilingan asarlarni tashkil etadi. Toʻgʻri badiiy asarni tarjima qilish tarjimon zimmasiga ancha murakkab va masʼuliyatli vazifani yuklaydi. Ushbu masala boʻyicha isteʼdodli tarjimon ustozimiz Yanglish Egamovanning olmon tilidan

o'g'irgan Bruno Apits qalamiga mansub "Qashqirlar changalida" romani asosida yoritilgan xulosalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Nemis yozuvchisi Bruno Apitsning "Qashqirlar changalida" romanini o'zbek tilida mutolaa qilar ekanmiz, kitobdan olingan taassurotlar ushbu asardagi voqealar rivoji haqida yozishga, tarjima sifatini tahlil qilishga undadi.

"Qashqirlar changalida" asari o'zbek tiliga yuqorida ta'kidlaganimizdek, bevosita nemis tilidan Yanglish Egamova tomonidan tarjima qilingan. Tarjimon ikki tilni yaxshi biladigan qalamkashlardan, tanlagan asarlarni o'zbek tili lug'at boyligidan unumli foydalanib, jummalarni asliyat mohiyatidan kelib chiqqan holda tarjima qilgan. Uning tarjimalari haqida yirik olimlar, tarjimon va tarjimashunoslar matbuot sahifalarida iliq fikrlar bildirishgan.

"Qashqirlar changalida" romani 1955–1957-yillarda yaratilgan va dunyoning boshqa tillariga ham tarjima qilingan asardir. Rus tilida esa 1966-yilda L.Gorfinkel tomonidan nashr qilingan. Romanda yozuvchi Buxenvald konslagerida o'zi guvoh bo'lgan voqealarni badiiy tasvir etgan.

B. Apits sakkiz yil konslager azobini tortgan bo'lib, u boshqa lagerdan Buxenvaldga evakuatsiya qilingan mahbus Yankovskiy tomonidan jomadonda keltirilgan uch yashar polyak yahudiy bolasini o'limdan saqlab qolish uchun kurash asar voqealari markazida turadi.

Buxenvald konslageridagi qarshilik ko'rsatish tashkilotining asosiy vazifasi qurolli qo'zg'olonni tayyorlash va mahbuslar hayotini saqlab qolishdan iborat edi. Lagerga bola kelgach, u tufayli hamma ishlar murakkablashib ketadi va Ilkning (Internatsional lager komiteti) fosh bo'lish xavfi kuchaya boradi. Escechi jallodlarga qarama-qarshi o'laroq mahbuslarning sabot-matonati, kelajakka ishonch bilan qarashlari romanning boshidan oxirigacha qizil ipdek o'tgan va shu tufayli ham ular pirovard natijada g'alabaga erishadilar.

Ushbu asar Bruno Apits nomini butun dunyoga tanitdi va u fashizmga qarshi, urushga qarshi haqiqiy aybnoma bo'lib jarangladi. Roman o'zbek tiliga 1975-yilda Berlinda "G'alaba kutubxonasi" seriyasida bosilib chiqqan nusxadan tarjima qilingan. Asar 1986-yilda G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida bosmadan chiqdi va qisqa muddat ichida sotilib ketdi. Hozirgi kunda bu asar noyob nusxaga aylangan.

Yozuvchi o'z asarini yozishda so'zga qanday e'tiborli bo'lsa, tarjimon ham badiiy asar tarjimasida so'z tanlashga shunday ahamiyat berishi lozim. Tarjimon oldiga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri shuki, u o'zi tarjima qilayotgan asardagi voqea-hodisalarning o'rni, davri, mohiyati, muayyan personajlarning xulq-atvorlari, ruhiyati, ijobiy yoki salbiyligi va shu singari qirralarga mos keladigan har bir so'z yoki iborani o'z ona tilidan topib, uning salmog'ini, ta'mini, vaznini, ohangini qayta-qayta o'lchab ko'rib qo'llashi lozim. Tarjimon oldida turgan eng muhim vazifalardan yana biri — ikki qarama-qarshi qutb kishilari bo'lgan, bir tomondan, turli millatlarga mansub mahbuslar obrazi, ikkinchi tomondan esa vahshiy hayvonlardan battar fashist jallodlari obrazi tasviriga bo'ysundirilgan

yoʻzuvchi uslubining oʻzbek tilida qanday tiklanganlik masalasi biz uchun muhimdir.

Zero, asar tarjimasida personajlar nutqini, dialoglarni, monologlarni aniq va toʻgʻri bera olish masalasi birinchi oʻrinda turadi. Asardagi obrazlar bir-biridan keskin farq qilar ekan, ularning xarakter-xususiyatlari, ichki va tashqi dunyosi, xatti-harakatlari tasvirida qoʻllanilgan soʻz va iboralar ham mazmun-mohiyati bilan juda katta manzara kasb etadi.

Personaj nutqidan uning xarakteri, muayyan ruhiy holati va hatto turmush tarzidan toʻ dunyoqarashigacha barchasini bilib olish mumkin. Bunday nutqni toʻgʻri aks ettirish obrazni originaldagidek qayta tiklash, tarjimada ham ana shu toʻlaqonli xarakterni yaratish demakdir. Bu esa asar gʻoyasini muallif niyatini oʻquvchiga oqizmaytomizmay yetkazishning asosiy shartlaridan biridir. Misol tariqasida, asardagi raportfyurer Raynebot va lager boshligʻining yordamchisi lagerfyurer Kluttih oʻrtasidagi suhbatni uning tarjimasi bilan qiyoslanganda:

— *Wohin? — Frage Kluttig.*

— *Arsch vollhauen, antwortete — Reineboth freundlich. jetzt schon? Kluttig blickte mit weintrüben Augen zu Reineboth hoch. Der rezitierte: Schmiede das Eisen, solange es warm ist (2, 159).*

Tarjimasi:

— *Qayoqqa? — soʻradi Kluttih.*

Orqalarini ishqagani, — javob berdi Raynebot kulib.

Hozirdan-a? — Kluttih Raynebotga suzilib qaradi.

— *Temirni qizigʻida bosish kerak, — uqtirdi, Raynebot (1, 140).*

Asar nutqining oʻziga xosligi tarjimada juda yaxshi qayta tiklangan. Tarjima qilib boʻlmaydigan jumlagam ham munosib ekvivalent tanlangan. Asarda nutqning talaffuz etilish vaqti, yaʼni nutqning hajmi, tarjimada ham originaldagidek boʻlishi lozim. Bu misolda ham tarjima va original hajm jihatdan bir-biriga nihoyatda mos, deb oʻylaymiz.

Arschvollhauen jumlasining *orqalarini ishqagani* tarzida tarjima qilinishi kontekst mazmuniga monandir. *Arschvollhauen* koʻproq ogʻzaki nutqqa xos boʻlib, koʻproq salbiy maqsadlarda ishlatiladi. Ayni kontekstda soʻzlovchining mahbusga nisbatan qoʻpolligini, andishasizligini bildiradi.

Nemis tilidagi ikkinchi jumla esa *Schmiede das Eisen solange es warm ist*, oʻzbek tilida aynan maʼno va shakl jihatdan mos keladigan ekvivalenti, yaʼni *Temirni qizigʻida bosish kerak* tarzida oʻgirilgan. Aynan shu vaziyatdagi yana bir jumlaning misol tariqasida keltirmoqchimiz: *Reineboth kniff die Augen zusammen und riet: Zuerst hauen wir ihnen den Arsch voll. Dann lassen wir sie schmoren im eigenen Saft, und in der Nacht machen wir Vernehmung bis zur Aussage (2, 67).* Raynebot koʻzlarini qisib maslahat berdi: Avval orqalarini boplab tekislaymiz. Keyin qoʻyib beramiz: oʻz yogʻlariga oʻzlari qovurilsin. Keyinchalik esa toʻ gapirmaguncha qiynaymiz (1, 139).

Kontekstdagi *schmoren im eigenen Saft* jumlasini qanday maʼno anglatishini qarab chiqqanimizda har uch tilda ham bir-biriga yaqin

ma'no beruvchi soʻzlar qoʻllanilganiga amin boʻldik. Nemis tilida — oʻzi aybdor boʻlgan vaziyatda qolish va boshqalar bilan aloqada boʻlmaslik maʼnosida, rus tilida — *вариться в собственном соку* — oʻzining chegarasidan chiqmaslik, oʻzbek tilida ruhan azob chekmoq maʼnosidagi “oʻz yogʻida oʻzi qovurilish” iborasi toʻgʻri va aynan tarjimaga mos tarzda oʻgirilgan. Tarjimon originalning bosh xususiyatini chuqur tahlil etish natijasida aniqlab, uni oʻzbek tilida nihoyatda ehtiyotkorlik bilan tabiiy koʻrinishda aks ettira olgan. Tarjimon oʻzbek tilining turli leksik qatlamlariga murojaat qilib, asliyat ruhiga har tomonlama mos tushadigan kerakli soʻz va iboralarni topib qoʻllaganini koʻramiz. Ushbu asarda ham shunga oʻxshash koʻplab soʻz va iboralarning oʻrinli qoʻllanishi tarjimada aks etgan.

Tildagi frazeologik birliklarga qancha soʻz qoʻshilmasin, ular yagona umumiy maʼno bilan amalga oshiriladi va emotsional-ekspressiv maʼnoni ifodalaydi. Gʻaybulli Salomovning nuqtayi nazariga koʻra, frazeologik birliklar badiiy adabiyotda majoziy va ifodali maʼno sifatida ishlatiladi. Ular semantik jihatdan umumiy ifodalangan, lekin grammatik jihatdan yaxlitlikda, komponentlarning oʻzaro bogʻlanishi va bir xil soʻz tartibini saqlash bilan izohlanadi (11, 221). Soʻzimizning isboti sifatida ayrim jumalarni misol keltirsak: *Kremerning yuragi qinidan chiqayozdi, ammo u oʻzini qoʻlga oldi. Uning miyasidan qanday fikrlar kechganini yuzidan bilib boʻlmasdi* (1, 41). *Krämer stockte das Blut, aber er hatte sich in der Gewalt, und in seinem Gesicht verriet nichts, welche Gedanken schon durch sein Gehirn fegten* (2, 119).

Misollardagi frazeologik maʼnoga ega boʻlgan ikki jumla mavjud boʻlib, bular *stockte das Blut* ruscha *кровь стынет в жилах* nemis tilida — *Angst bekommen*, yaʼni qoʻrqmoq maʼnosini anglatadi. Bu jumla ham oʻzbek tilida, ham biror narsadan qoʻrqmoq *yuragi yorilay dedi, odamning quti uchdi* maʼnolarini bildiruvchi — *yuragi qinidan chiqayozdi* tarzida oʻgirilgan. Nemis tilida *hatte sich in der Gewalt*, rus tilida — *держатъ себя в руках*, oʻzbek tilida — *oʻzini tutib olmoq, oʻzini qoʻlga olmoq* kabi maʼnolarini beradi. Yuqorida aytib oʻtganimizdek, frazeologik birliklar orqali yozuvchi Kremerning dushman oldidagi holatini tasvirlash orqali emotsionallikni ifodalagan.

Maʼlumki, tasviriy vositalar badiiy asarning, badiiy obrazning muhim bir qismini tashkil qiladi. Shunday ekan badiiy asar tili tadqiqiga bagʻishlangan ishlarda, albatta, tasviriy vositalar tahlil etiladi. Mazkur tadqiqotda ham oʻzbek tiliga tarjima qilingan asarlarning badiiy obrazlilikini taʼminlashda tasviriy vositalardan foydalanish mahorati oʻxshatish, metafora, metonimiya vositalaridan foydalanishi asosida xuddi asliyatdagidek oʻz oʻrnida xuddi uzukka koʻz qoʻygandek chiroyli qilib ochib berilgan. Tasviriy vositalarning yozuvchi va tarjimonning individual uslubiga xosligiga alohida ahamiyat berilib, ulardan xususi — muallifga tegishlilarini alohida ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

Nemis yozuvchi Bruno Apits asarini nemis va oʻzbek tillarida tahlil qilganda, shunga amin boʻldikki, barcha ijodkor singari

yozuvchi ham o'z asarlari tilini boyitishda, qahramonlar nutqiga badiiy bo'yoq berish, o'sha davrdagi muhitni tasvirlash maqsadida o'z tilidagi tasviriy vositalardan unumli va o'ziga xos tarzda foydalanganini ko'ramiz. Mohir tarjimon Ya.Egamova ham o'zbek tilida tasviriy vositalardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanib, asarning asliyatdagidek, o'z bo'yog'ini yo'qotmagan holda kitobxonlarga taqdim etgan desak, xato bo'lmaydi.

Ana shunday badiiy-tasviriy vositalardan biri o'xshatish bo'lib, yozuvchi undan foydalanish orqali o'z asarlari tilining rang-barang va jozibali bo'lishini ta'minlashga erishgan. Asarni har ikki tilda mutolaa qilarkanmiz, yozuvchi o'xshatishdan maqsadga mavofiq tarzda foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'pgina ijodkorlar singari B.Apits ham o'z asarida tasviriy vositaning bu turiga alohida e'tibor qaratgan. Ma'lumki, o'xshatishlar badiiy asarning ifodaviyligini, ta'sirchanligini oshirish orqali kitobxonga estetik ta'sir etishni kuchaytiruvchi tasviriy vositalardan biri hisoblanadi. O'xshatishlar narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini bir-biriga qiyoslash orqali voqealar rivojini, qahramon obrazini to'laroq, bo'rttirib ko'rsatadi. Shu o'rinda nemis romanida yozuvchi qo'llagan o'xshatishlar o'zbek tilida ham o'z mohiyatini yo'qotmagan holda, asliyatdagidek badiiy adabiyot tilining jozibadorligini saqlab, uni ta'sirchan bo'lishi uchun keng imkoniyat yaratib tarjima qilinganligi to'g'risida fikr yuritmoqchimiz. Yozuvchi va tarjimon ham asar tilining ta'sirchanligini, badiiy obrazlilikini ta'minlash maqsadida o'z ona tillarining tasviriy vositalaridan samarali foydalanishgan. Badiiy asarlarda uchraydigan o'xshatishlarning badiiy ko'lamdorlik jihatdan alohida ajralib turadigan ko'rinishlari badiiy o'xshatishlar bo'lib, ular asar badiiyatini kuchaytiradi, asar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan: *Axir sen uni o'lgan mushukdek ko'mib tashlayolmaysanku* (1, 53). — *Du kannst es doch nicht vergraben wie eine tote Katze*. Bu o'xshatishda o'xshatiluvchi mushuk, o'xshovchi obraz bola, o'xshatma belgi — o'lik, o'xshatish hosil qiluvchi vosita -dek qo'shimchasi o'xshatish vositasi vazifasini bajargan. Nemis tilida ham o'xshatish vositasi sifatida wie so'zi qo'llanilib, bu o'zbek tilida xuddi -dek ma'nolariga to'g'ri keladi. O'zbek tilida ham bu jumla to'g'ridan-to'g'ri tarjima bilan o'girilgan. O'xshatishning badiiy vazifasi nutqning badiiy obrazlilikini oshirish bilan birga, shu orqali kishiga estetik ta'sir etishdir. Badiiy asarlarda uchraydigan barcha o'xshatishlarga faqat birgina asos orqali yondashib bo'lmaydi. Chunki o'xshatishlar o'xshatish obyekti va subyekting, ular orasidagi o'xshash belgining oldindan ma'lum yoki noma'lumligi bilan o'zaro farqlanadi. Shuning uchun badiiy asarda uchraydigan o'xshatishlarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin: oddiy va badiiy o'xshatishlar:

1. **Oddiy o'xshatishlar.** O'xshatishlarning bu turida obyekt va subyekt orasidagi belgi avvaldan ma'lum bo'ladi. Masalan, *qorday oq — weiss wie Schnee, shakardek shirin — süß wie Zucker, toshday qattiq — hart wie Stein* va boshqalar. O'xshatishning bu turidan Bruno Apits asarida juda ko'p foydalanilganini ko'rish mumkin. Ulardagi bir predmetning biror belgisiga ko'ra boshqasiga

o'xshatilishining o'zi tasviriylikni vujudga keltiradi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: 1. Bemorlar va holdan toyganlarini pastga qarab qoplardek irg'itishardi (1, 8). — *Kranke und Erschöpfte schwissen sie wie Säcke herunter* (2, 24). 2. Pippih katta sovg'a olgan boladek, chamadonni ko'targancha omborxonaga eltuvchi zinapoyadan shoshilib chiqdi (1, 15). — *Wie ein glücklich geschenkter Junge war Pippig mit dem Koffer zur (die Treppen) Effektenkammer hinauf geeilt* (2, 48).

Keltirilgan misollarda ham asliyatdagi ma'no aynan o'zbek tiliga mos tarzda o'girilgan. Ushbu gapda vagondan tusholmagan odamlarni qoplarga qiyoslab ulotirishayotganligini tushunish mumkin. Shunday ekan, badiiy matndagi o'xshatishlarning vazifalari xususida fikr yuritilganda, asosan badiiy o'xshatishlarni obyekt qilib olish maqsadga muvofiqdir.

2. Badiiy o'xshatishlar. Badiiy o'xshatishlarda o'xshatilayotgan belgi kutilmagan holatda vujudga kelib, u avvaldan ma'lum bo'lmagan o'xshash belgi asosida paydo bo'ladi. Bunday belgi ko'p holatlarda predmetlarga xos belgi bo'lmay, ijodkorning topqirligi va fantaziyasi asosida hosil qilinadi. Shuning uchun ham o'xshatishning bu turida badiiy-obrazlilik darajasi yuqori bo'ladi. "Qashqirlar changalida" asarining asl va tarjima variantida ham yozuvchining va tarjimonning topqirligi asosida hosil qilingan o'xshatishlar ko'p uchraydi:

1. Vagon o'z ichidagilarni xuddi pishib yorilgan yaradan oqqan yiringdek chiqarib tashlardi (1, 7). — *Wie aufbrechende Geschwüre gaben die Wagen ihren Inhalt von sich*.

2. Deyarli har kuni kelayotganlar soni xuddi isitmasi baland bemorlarga qo'yilgan termometrning simob ustunidek oshib borardi (1, 6–7). *Wie die Säule in Fieberthermometer steht die Zahl der fast täglich neu Ankommenden* (2, 20).

Birinchi jumladagi o'xshatishda vagonda kelgan odamlar shunchalik ko'pligidan suvdek oqib tushayotganligini tushunish mumkin. Yozuvchi ham o'z ona tilida fikrini bo'rttirib, matnga badiiy bo'yoq kasb etish maqsadida, bu holatni yaradan oqayotgan yiringga qiyoslab ifodalagan. — Yaradan oqayotgan yiringni to'xtatib bo'lmaganidek, vagondagilarni ham to'xtatib bo'lmasdi ma'nosida odamlar sonining ko'pligini tasvirlagan. Ikkinchi jumlada ham lagerga kelayotgan mahbuslar sonining ko'pligini simob ustuniga o'xshatilganini tushunish mumkin. O'zbek tilida ham xuddi shu ma'noni anglatuvchi jumlar bilan tarjima qilingan. O'xshatilgan predmetlar *Wie aufbrechende Geschwüre — xuddi yorilgan yaradek*, *Wie die Säule in Fieberthermometer — xuddi termometrning simob ustunidek* tarzida o'zbek tilida o'z aksini topgan. O'xshatish asosidagi o'xshash belgi yozuvchining tildan foydalanish mahoratining yorqin natijasidir.

Tarjimon maqol, matal va frazeologizmlarni o'z ona tiliga o'girar ekan, asardagi qahramonning xarakteriga ko'ra kontekstdan, muallifning maqsadidan kelib chiqib, ko'plab sinonimlar ichidan munosibini tanlab oladi. Misol tariqasida quyida bir necha jumalarni keltirib o'tamiz. Masalan, nemis tilida: *”Er konnte den Mund nicht*

halten und quetschte aus dem Mundwinkel in Bochows Genick: „Denen da oben wird der Arsch bald mit Grundeis gehen“ (2, 18). — “U tilini tiya olmay Boxovning orqasida ming ‘irlardi. — Hademay anavi yuqoridagilarga sichqonni ini ming tanga bo‘lib qolar” (1, 6).

Keltirilgan parchadagi “*wird der Arsch bald mit Grundeis gehen*” iborasi nemis tilida yomon narsadan qo‘rqish va kimnidir katta xavf va qo‘rquv kutayotganlik ma‘nosini beradi. Rus tarjimoni tomonidan bu jumla nemis tiliga yaqin so‘z yomon xabar kutilayotgan ma‘nosini beruvchi og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan jumla bilan, ya‘ni “У начальства то скоро зачешутся пятки!” tarzida tarjima qilingan. O‘zbek tilida bu kelayotgan xavfdan qochishga joy topa olmaslik ma‘nosidagi “sichqonni ini ming tanga” iborasini qo‘llanilganligi o‘zbek kitobxonlariga tushunarli qilib o‘g‘irilganligida kuzatish mumkin. *Sie versuchten ihm klarzumachen, daß eine verfrühte Aktion die Vernichtung des ganzen Lagers zur Folge haben könnte (2, 73). — Ular unga bemavrid harakat butun lagerning kulini ko‘kka sovurishi mumkinligini anglatishga urinishardi (1, 63).*

Nemis tilidagi “*die Vernichtung des ganzen Lagers zur Folge haben könnte*” jumlasini o‘zbek tilida “*butun lagerning buzilishiga olib kelishi mumkin*” deb bersa ham bo‘lardi, lekin tarjimon qo‘llagan „*kulini ko‘kka sovurishi mumkin*“ iborasi ushbu joyda qo‘llanishi ayni muddaodir. Kontekstda asliyadagi iboraning ma‘nosi ham shunga yaqinroqdir.

Nemis tilida: — *Höfel entgegnete kurz: Ich weiß Bescheid. Darüber wird nicht gequatscht, verstanden (2, 21)*, deb berilgan parcha o‘zbek tilida: — *Xabarim bor. Bu haqida og‘zingdan gullab yurmagin, uqdingmi — dedi, Xyofel gapni qisqa qildi (1, 17)*, deb o‘g‘iriladi.

Ushbu misolda keltirilgan quyidagi iboraning tarjimasini tahlil qilsak. „*Darüber wird nicht gequatscht, verstanden.* — “Bu o‘zbek tiliga “*Bu haqida og‘zingdan gullab yurmagin, uqdingmi*” nemischa “*Quatschen*” fe‘li og‘zaki nutqda qo‘llanilib, salbiy ma‘noda, qo‘pol tarjimaga ega va u valdiramoq, bidirlamoq deb o‘g‘iriladi. Asarda bu ibora “og‘zidan gullamoq” deb berilgan va o‘z o‘rnida tushunarli qilib, tarjima qilingan.

Yozuvchi uslubining konkretlashgan ko‘rinishlari asarda to‘lib toshgan idiomatik birikmalar, ko‘chma ma‘nodagi so‘z va iboralar, fashist leksikasi, ayni konslager sharoiti va hayotini ifodalovchi so‘zlar, ayniqsa eseschilar nutqidagi vulgarizmlar aynan ushbu romanda qo‘llanilgan. Lug‘atlarda uchramaydigan so‘zlar bilan boyigan asar g‘oyasi, ruhi, yozuvchi maqsadiga mos muqobillari bilan berilishi natijasida boshqa asarlarda uchramaydigan o‘ziga xos tarzda roman yaratilganini ko‘ramiz. Bu vazifalarni kitobxon didiga mos qilib amalga oshirishda tarjimon o‘zbek tili imkoniyatlaridan unumli foydalangan va har bir so‘zning ma‘nosi, shirasi, jarangini saqlab, fikr tarozusida ming bor o‘lchab keyin tarjimada aks ettirgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, romandagi fashistlar, mahbuslar nutqi ham ichki va tashqi qiyofalar tasvirida qo‘llanilgani barcha so‘z va iboralar bir-biridan keskin farq qilishini ko‘rsatadi. Eseschilar nutqi, hatto ular tasviri uchun muallif nutqidagi so‘zlar ham salbiy

ohang kasb etadi va ular qo'pol, keskin ma'no qirralariga ega. Bundan tashqari, asarda ko'plab so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanilgan, chunonchi, "saugen" fe'li to'g'ri ma'noda "совать — emmoq" tushunchasini anglatadi. Ammo quyida keltirilgan kontekstda bu fe'l "so'zni, fikr yuritish", ya'ni uning mag'zini chaqib, miyaga quyib olish, demakki fashistning suhbatdoshi gaplarini yutoqib tinglayotganini bildiradi.

Bu fe'l eseschi Kluttihga nisbatan qo'llangan. Kartserda yotgan mahbuslar Xyofel va Kropinskiydan so'roq paytida qanday usullar bilan yashirin tashkilot haqida ma'lumot olish xususida suhbatlasharkan, Kluttihning Raynebot gaplariga qanday quloq solayotganini tasvirlaganda yozuvchi o'sha so'zni qo'llagan: "Der saugte jedes Wort in sich hinein, das ihm Reineboth zuflüsterte" (2, 159). O'zbekcha: *Kluttih Raynebot shivirlagan har bir so'zni go'yo yutardi* (1, 139).

Kontekst mazmunidan kelib chiqqan tarjimon jumlaning quyidagicha o'g'irgan: "Kluttih Raynebot shivirlagan har bir so'zni go'yo yutardi" (1, 139). *Yutmoq* fe'li, bizningcha, yozuvchi ko'zlagan maqsadni, salbiy personajning xarakter xususiyatini yetarli darajada ifoda etadi. Ushbu kontekstda ko'proq kinoya sezilib turadi. Quyidagi jumlada ham so'zlovchi nutqidagi kinoya ohangi, esechining mahbuslarga nisbatan nopisandligi aks etgan, Xyofel bilan Kropinskiyni qanday jazolash haqida so'zlarikan, Raynebot Kluttihga shunday deydi: "Der Mandrill kriegt Vollmacht, mit ihnen zu spielen, wie er will" O'zbekcha: "Ular bilan istagancha o'ynashishni Mandrilning o'ziga qo'yib beramiz" (1, 140).

Spielen — o'ynamoq so'zi bu yerda ko'chma ma'noda kelgan, aynan tushunilganda "turli usullarni qo'llab, jazolash" ma'nosini beradi. Biroq so'zni bunday tarjima qilinsa, fikr quruq chiqadi va nutqdagi kinoya ottenkasi sezilmay qoladi. Yozuvchi ko'zlagan maqsadni aks ettirish maqsadida Ya. Egamova jumlaning shunday o'g'irgan "Ular bilan istagancha o'ynashishni Mandrilning o'ziga qo'yib beramiz" (1, 140).

Quyidagi fikr esa yuqoridagi gapning bevosita davomi bo'lib kelgan: *Nur kaltmachen darf er sie uns nicht* (2, 159), tarjimasi: *U ularni faqat yer tishlatib qo'ymasligi kerak* (1, 140). Ushbu misoldagi kaltmachen ubivat — o'ldirmoq so'zining nemis tilida juda ko'p sinonimlari bor. Ularning har biri o'ziga xos ma'no qirralariga ega bo'lib, ularni istalgan kontekstda so'zlovchi — esechining mahbusga nisbatan mensimay munosabatda bo'layotgani, shu bilan birga, uning qo'polligini, andishasizligini bildiradi. O'zbek tilida ham shu kontekstga muvofiq keladigan sinonimlarni izlash lozim edi va bunday so'zni tarjimon topa olgan.

"O'ldirmoq" so'zining "yer tishlatmoq, o'ldirib qo'ymoq, tinchitmoq, narigi dunyoga jo'natmoq va hokazo" sinonimlari mavjud. Afsuski, 1984-yilda chiqqan ikki tomlik "Ruscha-o'zbekchi lug'at"da ushbu sinonimlarning barchasi ham aks etmagan. U lug'atda "ubit" so'zi — o'ldirmoq, chopmoq, otmoq, so'ymoq, o'ldirib/otib, chopib, so'yib qo'ymoq deb tarjima qilingan.

Yirik tarjimashunos olim G'.Salomov aytganidek, “har qanday mukammal lug‘atda ham tilda mavjud hamma sinonim so‘zlarni berib bo‘lmaydi, ikkinchidan tarjimonning lug‘at zahirasi rasmiy lug‘atlardagi so‘zlardangina iborat emas. Har bir tarjimon lug‘atdan foydalanish bilan birga, tarjima jarayonida o‘zi lug‘at ham yaratadi” (10, 200).

Demak, yuqoridagi jumlaning tarjima qilishga ijodiy yondashmoq, o‘zbek tili, ayniqsa, xalq tili imkoniyatlaridan samarali foydalanmoq zarur edi. Negaki, lug‘atda berilgan birorta ma‘no kontekst mazmunini ochib berolmaydi. Tarjimon oldida eseschi nutqidagi qo‘pollik, dag‘allik ohangini tiklash vazifasi turar ekan, o‘sha so‘zni “yer tishlatmoq” iborasi bilan berib maqsadga erishgan. Qolaversa, bu ibora ham “*kaltmachen*” singari og‘zaki nutqqa xosdir. Shu o‘rinda G‘aybulla Salomovning yana bir fikrini keltirib o‘tishni joiz deb hisoblaymiz: “Agar ikki tilli lug‘atlar standart so‘zlar asosida emas, balki jonli tarjima amaliyoti materiallari asosida tuzilsa, leksikografiyada ham, tarjima amaliyoti va nazariyasi sohasida ham bag‘oyat ulug‘ ish qilingan bo‘lar edi” (8, 205).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, agar tarjimon faqatgina lug‘atga tayanib ish ko‘rsa, tarjima tili behad kambag‘allashib, quruq bo‘lib qoladi. U asliyat tilini bilishdan tashqari o‘z ona tilining turli leksik qatlamlarini, u yoki bu so‘zning qo‘llanilish doirasini bilishi, his etishi kerak. Shu bilan birga, ijodkor oldiga qo‘yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, ya‘ni yuksak iste‘dod, mahorat sohibi bo‘lmog‘i, tinimsiz o‘qib o‘rganmog‘i, izlanmog‘i, chidam, sabr-toqat bilan so‘z ustida ishlashdan zerikmasligi lozim. Shundagina boshqa bir tilda yaratilgan san‘at asarini ikkinchi bir tilda xuddi asliyatdagi qiyofasiga ega bo‘ladi va kitobxon mehrini qozona oladi.

Biz “Qashqirlar changalida” romani mutolaa va tahlil qilar ekanmiz, tarjimon Ya.Egamova roman tarjimasiga juda katta mehnat sarf qilganiga amin bo‘ldik. Uning tilimiz xazinasidan ustalik bilan foydalanganligi, katta turmush tajribasi, kamol topgan badiiy mahorati va halol mehnati “Qashqirlar changalida” asarining muvaffaqiyatli tarjima qilinishini ta‘minladi. Tarjimonning jiddiy yutug‘i shundaki, u nemis adibi Bruno Apits nomidan gapirayotganini chuqur his qilib, tarjimada til ravonligi, ifodaning tabiiyligi va tasvirning go‘zalligiga erisha oldi. Va shu orqali konslager hayoti va mahbuslar boshidan kechirgan voqealarni o‘z holicha o‘zbek kitobxonlariga yetkazib bera oldi. Albatta, tarjima ayrim kamchilik va nuqsonlardan ham xoli emas. Biroq ular yutuqlar oldida sezilmay qoladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjima jarayoni g‘oyat murakkab jarayondir. Bunda faqat til bilishning o‘zi kifoya qilmaydi. Bu tinimsiz mehnat, izlanish va o‘rganishni talab etadi. Tarjimon biror-bir asar ustida ishlarkan, u yuksak iste‘dod sohibi bo‘lmog‘i, sabr-toqat bilan so‘z ustida erinmay ishlashi, o‘z ishiga mehr-muhabbat bilan yondashmog‘i lozim. Bundan tashqari, agar asar asliyatdan o‘girilsa, ko‘rib o‘tganimizdek, unga xos bo‘lgan barcha jihatlar tarjimada ham to‘la aks etadi. Tasviriy vositalar tarjimasida ham

asliyat tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim, chunki ba'zi ko'chma ma'nodagi so'z va iboralar tarjima tiliga to'liq mos kelavermaydi. Yuqorida "Qashqirlar changalida" asari asliyat va uning o'zbek tilidagi tarjimasi tahlili orqali ko'chma ma'nodagi so'z va iboralar asliyat ekvivalentlaridan qisman, ba'zi o'rinlarda jiddiy farq qilishiga guvoh bo'ldik.

Badiiy asar matnida qo'llangan poetik tasviriy vositalar tarjimada uch usul orqali: tarjimada so'zma-so'z berish; tasviriy vositani muqobili orqali berish; muayyan tasviriy vositani tarjimada tushirib qoldirishi aniqlandi.

"Qashqirlar changalida" asarida qo'llanilgan tasviriy vositalarni tahlil qilishda asarning o'zbek tilida berilishi bilan bir qatorda rus tilidagi variantlaridan ham ayrim so'zlar tarjimasi ko'rib chiqildi. Tahlil etilgan tasviriy vositalar qiyosiy o'rganilib, tarjimonning bu borada erishgan yutuqlari ochib berildi.

Tasviriy vositalarning badiiy adabiyotda keng qo'llanilishi asarning badiiy tilini sayqallashtirish, qahramonlar xarakteri va o'sha davr muhitini tasvirlashdagi emotsional-estetik ta'sirini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun tarjima jarayonida ham asliyat matnidagi tasviriy vositalarning funksional xossalarini hisobga olish asar mohiyati va mazmunining to'laqonli chiqishini ta'minlaydi.

Tarjimashunoslikda bunday tasviriy vositalarni tarjima qilish va ularda mavjud lingvomadaniy muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlarning ko'payib borishi badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotda o'z o'rniga ega bo'lgan har bir ijodkor asarlari va tarjima asarlarni tahlil etish, yozuvchi va tarjimonning mahoratini o'rganish va baholash, ularning o'z adabiy til rivojiga o'z asarlari orqali qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi. Hammaga ma'lumki, tarjima qilinayotgan asar muallifining vatani, tili, xalqining turmush tarzi haqida ma'lumotga ega bo'lish har bir tarjimon uchun muhim hisoblanadi. A.S. Pushkin tarjimini "adabiyotning eng mushkul bo'limi" deb bejiz aytmagan. Tarjima tarixiy tushuncha bo'lib, turli tarixiy davrlar unga turli-tuman shartlarni qo'yadi va haqiqiy adabiyot bilan aloqasini turlicha tushunadi. Bundan kelib chiqadiki, tarjimon o'zaro bir-biriga zid bo'lgan masalalarni hal qilishi va bir-biriga bog'lab bo'lmaydigan narsalarni bog'lay olishi kerak. Nemis tilidan bevosita tarjima qilingan asarni tahlil qilarkanmiz, tom ma'noda tarjimon badiiy talant va iqtidorini aniqlash imkonini beradi. Tarjimon asarni o'zbek tiliga o'girar ekan, tilimizdagi barcha badiiy-lug'aviy vositalardan voqealarning asl mohiyatidan kelib chiqqan holda, asliyatdagidek o'zbek kitobxonlariga taqdim etdi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, roman badiiy tasvir vositalarga boyligi va bular tarjimada ham o'z mohiyatini yo'qotmaganligini va o'sha davr muhitini leksik vositalar orqali ko'rsatib berdi.

Ayniqsa, tarjimon badiiy obrazlilikka jiddiy e'tibor qaratgan, chunonchi, metafora, o'xshatish, epitetlar orqali asar tilini badiiy-

estetik vazifasini ta'minlay bilgan. Muallif maqsadini, qahramonlar ruhiy olamini, fashistlarning mahbuslarga nisbatan qo'pol munosabatini lo'nda, tushunarli tilda ochib berishga harakat qildi. Ular tarjimada ham aynan o'z aksini topsa, tarjima o'quvchisi ham o'sha asardan xuddi asliyatni o'qigandek bahra oladi. Shunigdek, asliyat tilidan bevosita o'girilgan har qanday asar tarjimasi asarning mazmun va shakl birligini saqlab qolishga xizmat qiladi va bu esa uning bilvosita qilingan tarjimalardan afzal tomonlarini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Apits B. Qashqirlar changalida / nemis tilidan Egamova Y. tarjimasi. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at nashriyoti". — 1986. — 399 b.
2. Apitz B. Nackt unter den Wolfen, Erzälende Proza. Roman. — Leipzig: Verlag Philipp Reclam, 1974. — 392 s.
3. Апиц, Б. В волчьей пасти / Пер. с нем. Д. Горфинкеля. — Москва: Изд-во иностр. лит., 1961. — 392 с.
4. Egamova Y. Iste'dod va mehnat samarasi // Tarjima san'ati. — 1998. — № 3.
5. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. — Toshkent, 1976. — 232 b.
6. Musaev Q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati. — Toshkent: O'qituvchi, 1976. — 351 b.
7. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari: o'quv q o'llanma. — Toshkent, 2014. — 315 p.
9. Русско-узбекский словарь: в двух томах / Редкол.: Кошчанов М. К., Акобиров С. Ф. [и др.]. Том 1. — Ташкент: Гл. ред. Узбекской Советской Энциклопедии, 1983. — 807 с.
10. Salomov G'. Til va tarjima. — Toshkent: Fan, 1966. — 279 b.
11. Teshaboyeva. Z. Comparative of English Translations of Phraseological Units in "Baburname" // International Journal of Future Generation Communication and Networking 2020, No. 4, pp. 221—235. — URL: <https://www.researchgate.net/publication/358030028>
[Comparative Analysis Of English Translations Of Phrazeological Uniits In Baburname](#)
12. Tomass M. Lotta Vaymarda. Olmon tilidan Egamova Y. tarjimasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 478 b.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. — Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1981. — 632 b.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. — Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1981. — 715 b.
15. Qo'ng'irov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. — Toshkent: O'qituvchi, 1977. — 278 b.
16. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 2004. — 224 b.
17. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. — Toshkent: Fan, 1983. — 298 b.

References

1. Apits B. *Kashkirlar changalida* (Naked among Wolves), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti, 1986, 399 p.
2. Apitz B. *Nackt unter den Wolfen* Erzälende Proza. Roman, Leipzig: Verlag Philipp Reclam, 1974, 392 s.
3. Apits B. V *Volchey Pasti* (Naked among Wolves), Moscow: Izdatelstvo inostrannoy literaturi, 1961, 392 p.
4. Egamova Y., *Tarjima san'ati*, 1998, No. 3.
5. Mukarramov M. *Uzbek tilida uxshatish* (Imageing in Uzbek), Tashkent, 1976, 232 p.
6. Musaev K. *Badiiy tarjima va nutq madaniyati* (Art Translation and Speech Culture), Tashkent: Ukituvchi, 1976, 351 p.
7. Ochilov E. *Badiiy tarjima masalalari* (Art Claim Translementary Issues), Tashkent, 2014, 315 p.
9. *Russko-uzbekskiy slovar* (Russian-Uzbek dictionary), in two vol., vol. 1, Tashkent: Uzbekskaya Sovetskaya Entsiklopediya, 1983, 807 p.
10. Salomov G. *Til va tarjima* (Language and translation), Tashkent: Fan, 1966, 279 p.
11. Teshaboyeva Z. *Baburname*, 2020, No.4., pp. 221—235, available at: https://www.researchgate.net/publication/358030028Comparative_Analysis_Of_English_Translations_Of_Phrazeological_Uniits_In_Baburname
12. Tomass M. *Lotta Vaymarda* (Lotta in Weimar), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2019, 478 p.
13. *Uzbek tilining izohli lugati* (Annotal Dictionary of Uzbek Language), in 5 vol., 1 vol, Tashkent: Uzbekistan milliy entsiklopediyasi, 1981, 632 p.
14. *Uzbek tilining izohli lugati* (Annotal Dictionary of Uzbek language), in 5 vol., 2 vol., Tashkent: Uzbekiston milliy entsiklopediyasi, 1981, 715 p.
15. Kungirov R. *Uzbek tilining tasviriy vositalari* (Visual Means of the Uzbek language), Tashkent: Ukituvchi, 1977, 278 p.
16. Kuronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish* (Introduction to Literary), Tashkent: Abdulla Kodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2004, 224 p.
17. Kilichev E. *Badiiy tasvirning leksik vositalari* (Lexical Means of Artistic Image), Tashkent: Fan, 1983, 298 p.